

SKUTER POREYONIMLARINING NOMINATSION XUSUSIYATLARI VA LINGVISTIK
TAHLILI

Muhammadaliyev Mirzohid Nosirjon o‘g‘li
Namangan davlat universiteti tayanch doktranti

Email: bekhmirezokhid27@mail.ru

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21903168>

Annotatsiya. Mazkur maqolada skuter poreyonimlarining nominatsion xususiyatlari hamda ularning leksik-semantik jihatlarini tahlil qilinadi. Skuter poreyonimlarining shakllanish tamoyillari va asosiy nominatsion modellari yoritilib, ularning transport onomastikasidagi o‘rni aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: *skuter poreyonimi, poreyonim, nominatsiya, leksik-semantik xususiyat, transport onomastikasi, nomlash tamoyillari, onomastik birlik.*

Аннотация. В данной статье анализируются номинативные особенности скутерных порейонимов и их лексико-семантические характеристики. Рассматриваются принципы формирования названий скутеров и основные номинативные модели, а также определяется их место в транспортной ономастике.

Ключевые слова: *скутерный порейоним, порейоним, номинация, лексико-семантические особенности, транспортная ономастика, принципы наименования, ономастическая единица.*

Abstract. This article analyzes the nominative features and lexical-semantic characteristics of scooter poreionyms. It examines the principles of scooter name formation and the main nominative models, and identifies their role in transport onomastics.

Keywords: *scooter poreionym, poreionym, nomination, lexical-semantic characteristics, transport onomastics, naming principles, onomastic unit.*

Transport onomastikasida poreyonimlarni tadqiq etish transport poreyonimlarining nominatsion va semantik xususiyatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Skuter poreyonimlari texnologik rivojlanish, brending va marketing omillari ta’sirida shakllanadigan o‘ziga xos onomastik birliklar hisoblanadi. Mazkur maqolada skuter poreyonimlarining nomlanish tamoyillari hamda ularning leksik-semantik xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Skuter [ing. scooter – samokat < scoot – ketmoq; yurmoq] 1 Elektr toki yordamida harakatlanadigan ikki g‘ildirakli kichik mototsikl; moped [O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 6-jildli, 4-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023, 687-bet.]. “Scooter” so‘zi “scoot” fe‘lidan kelib chiqqan bo‘lib, u tez harakat qilish degan ma‘noni anglatadi. “Scoot” – bu so‘z 18-asr boshlarida (taxminan 1730-yilda) paydo bo‘lgan bo‘lib, ehtimol shotland tilidan olingan. U tez yurish, chaqqonlik bilan harakat qilish degan ma‘noni bildiradi. “Scooter” – bu so‘z “scoot” so‘ziga -er qo‘shimchasini qo‘shish bilan hosil bo‘lgan. Ya’ni, tez harakat qiluvchi narsa yoki hrakatga yordam beruvchi moslama degan ma‘noni bildiradi. “Scooter” so‘zi dastlab 20-asr boshlarida bolalar o‘yinchoqlari – oyoq bilan itarib harakatlantiriladigan, rul va g‘ildiraklarga ega kichik platformani ifodalash uchun ishlatilgan.

1900-yillar boshlarida “scooter” so‘zi bolalar uchun mo‘ljallangan oyoq bilan itariladigan skuterga nisbatan ishlatilgan. Hozirgi kunda “scooter” so‘zi ikkala – ham oddiy oyoq bilan harakatlantiriladigan, ham elektr skuterlarga nisbatan qo‘llaniladi, ayniqsa shaharlarda foydalaniladi [<https://www.etymonline.com/word/scooter>].

Skuter poreyonimlari nominatsion xususiyatlariga ko‘ra quyidagi turlarga ajratiladi:

1. Akronimlar asosida shakllangan skuter poreyonimlari. Akronim – bu bir nechta so‘zlarni qisqartirib, yangi so‘z (nom) hosil qilish usuli.

Honda PCX (125/160/150 e:HEV) – Personal Comfort Xaloon (PCX). “Shaxsiy qulaylik”, “sportiv nafislik” g‘oyalarini ifodalaydi.

Honda ADV (160/350) – adventure (ADV). Tog‘lar, yo‘lsiz yo‘llar, sarguzashtga mo‘ljallangan transport g‘oyasini bildiradi.

Hero XOOM – akronim sifatida talqin qilinadi: ba’zida XOOM = eXtreme Zoom or Motion deb reklama qilinadi. Yoshlar uchun mo‘ljallangan zamonaviy, tezkor skuter.

TVS Ntorq – Ntorq – Next Torque (Yangi aylanish moment). Texnik jihatdan kuchli skuter konsepsiyasini bildiradi.

Yamaha FASCINO – rasmiy akronim sifatida emas, ammo ba’zi reklama manbalarida “Fascino” – fashion +innovation deb talqin qilinadi va zamonaviy dizayn hamda innovatsion texnologiyalay uyg’unligini ifodalaydi.

Akronimlar asosida shakllangan skuter poreyonimlari ixchamligi, esda qoluvchanligi va marketing samaradorligi bilan ajralib turadi. Ular transport vositalarining funksional xususiyatlarini qisqa shaklda ifodalaydi.

2. Eponim – bu biror shaxs yoki joy nomi asosida yaratilgan nomdir. Eponim – transport markalari yoki modellari bo‘lib, ular asoschilarining va mashhur shaxslarning ism/familiyasidan olingan. Bular antroponimik eponimlar deb ataladi. Antroponik (shaxs nomlari) eponimlar bilan atalgan skuter nomlari.

Bajaj Chetak – Hindistonlik hukmdor Maharana Pratapning afsonaviy oti “Chetak” nomi bilan atalgan, sadoqat va jasorat ramzini ifodalaydi.

Peugeot Django – fransuz jazz gitarachisi Django Reinhardt sharafiga nomlangan.

Lambretti V-Special “Pirelli Edition” – Pirelli - bu kompaniya nomi bo‘lsa-da, aslida asoschisi Giovanni Battista Pirelli bo‘lgan. Shaxs asos solgan brend orqali modelni shaxsga bog‘lanish mavjud.

Peugeot Django – Django Reinhardt – mashhur fransuz jazz gitara ijrochisi. Skuterning retro dizayni 1950-yillar uslubida yaratilgan, Django Reinhardt davrida san’at va madaniyatni ifodalaydi.

Vespa 946 Emporio Armani – italiyalik mashhur dizayner Giorgio Armani bilan hamkorlikda ishlab chiqarilgan ushbu model Vespa brendining yuqori dizayn va texnologiyalarini ko‘rsatadi.

Eponim asosidagi skuter poreyonimlari tarixiy shaxslar, brend asoschilari yoki mashhur nomlar bilan bog‘lanib, mahsulotning nufuzi va tarixiy qadiryatini oshirishga xizmat qiladi.

3. Gidronimlar (suv obyektlari va inshootlari nomlari) bilan atalgan skuter nomlari.

Suzuki Marine – Marine – dengizga oid. Bu nom dengiz, suv muhiti va ekologik hayot tarziga ishora qiladi.

Vespa Lagoon – Lagoon – ichki dengiz yoki ko‘l. “Lagoon” – sokin, chiroyli suv havzasini bildiradi. Modelning yumshoq dizayni va sukunatga urg‘u shu nomga mos keladi.

Yamaha Aqua – Aqua – lotincha “suv” degani, keng talqinda suv bilan bog‘liq barcha holatlarni ifodalaydi. Skuter ekologik jihatdan toza, suvga yaqin dizayn bilan ishlab chiqarilgan.

Gidronim asosidagi poreyonimlar mahsulotda xotirjamlik va tabiiy obraz yaratadi hamda marketingda ramziy vosita sifatida qo‘llaniladi.

4. Kommersial (savdo) nom – bu mahsulot yoki texnika bozorga chiqarishda marketing va brend strategiyasiga asoslanib qo‘yilgan nomlar. Marketing maqsadida yaratilgan skuter poreyonimlari.

BONVI – elektr mototsikllarni ishlab chiqaruvchi brend. Bu nom aniq ma’noga ega emas, marketing maqsadida tanlangan. BONVI – O‘zbekistonda faoliyat yurituvchi mahalliy brend. Bon – fransuz tilida “yaxshi” degan ma’no beradi. VI – lotin yoki italyanacha “hayot” yoki “sayohat” so‘zlaridan kelgan bo‘lishi mumkin (ya’ni yaxshi sayohat). “Bonvi” – bu “yaxshi hayot” yoki “yoqimli harakat”, “yo‘l zavqi” kabi ijobiy, harakatchanlikni anglatuvchi nom sifatida talqin qilinadi. Marketingda katta harflar chiroyli ko‘ringani uchun shunday yozilgan. Modellari: Bonvi 2210, BONVI CKT-5917, BONVI CKT-5678, BONVI 5473.

Bodo – skuter va mototsikllarni ishlab chiqaruvchi Xitoy brend. Bu nom aniq bir ma’noga ega emas. Xitoy brendlari ko‘pincha bunday nomlarni tijorat va marketing maqsadida yaratadilar, Bodo ham turli tillarda oson talaffuz qilinadi va o‘ziga jalb qiladi.

Yadea – elektr skuterlar ishlab chiqaruvchi brend. “Ya” – oson esda qolishi uchun, marketing maqsadida tanlangan. “Dea” – yunon tilidan olingan bo‘lib, “xudoning onasi” yoki “ilohiy” ma’nosini anglatadi. Bu nom brendning zamonaviy va ishonchli imijini shakllantirishga xizmat qiladi.

Kommersial poreyonimlar mahsulotni bozorda ajratib ko‘rsatish, xaridor e’tiborini jalb etish va brend imijini shakllantirish vazifasini bajaradi.

5. Metafora asosida shakllangan skuter poreyonimlari.

Armada motors (elektr skuterlar) – “Armada” so‘zi ispan tilidan kirib kelgan bo‘lib, dastlab harbiy flot, kemalar to‘plami degan ma’noni bildiradi. Lotincha “armare” – “qurollantirmoq” fe’lidan kelib chiqqan. Kuch, harbiy tayyorgarlik, jiddiylik va jamoaviy harakat obrazini uyg‘otadi. “Armada” nomi yirik, bardoshli, yo‘l tanlamaydigan harbiy uslubdagi dizayn, ko‘proq erkaklar auditoriyasiga yo‘naltirilgan skuterlar.

Aprilia SR Motard 125/160 – “motard” so‘zi tog‘ yo‘llarida harakatlanadigan skuterlarga taalluqli. Bu nom sport, shiddat, kuch, jasorat va ekstremal harakat kabi ramziy ma’nolarni beradi. Tog‘li hududlar uchun moslashtirilgan sportiv skuter; kuchli shassi va barqaror yurishi bilan ajralib turadi.

Aprilla Scarabeo – Scarabeo – italyanchada “skarabeo qo‘ng‘izi”. Skarabeo qadimgi Misrdagi muqaddas, kuchli va uzoq umr timsoli bo‘lgan. Skuter esa ishonchlilik, mustahkamlik va o‘ziga xoslik metaforasi bilan nomlangan.

Honda Vision – vision – “tasavvur”, “kelajak qarashi”, “orzu”. Skuter nomi kelajakka qaragan, zamonaviy, ilg‘or texnologiyali transport vositasini anglatadi. Metaforik jihatdan, haydovchi o‘z yo‘lini oldindan ko‘ra oladigan, maqsadli inson deb tasvirlanadi.

Kymco Agility – Agility – “epchillik”, “tezlik harakatlanish qobiliyati”. Bu nom epchillik, yengil harakat va shahar ko‘chalarida tez manevr qilish imkoniyatini beradi. Metafora – shahar yo‘llarida yo‘l topa oladigan chaqqon vosita.

Peugeot Speedfight – speed – “tezlik”, Fight – “kurash”. Bu nom orqali sportiv ruh, tezlik uchun raqobat va harakatga chanqoqlikni ifodalaydi. Skuter tezlikni sevuvchilar uchun yaratilgan.

Piaggio Typhoon – “typhoon” (dovul) – tabiat kuchi. Dovul obrazidagi kuch va tezlik hayvoniy kuchga tenglashtirilgan metaforadir.

SYM Joyride – Joyride – inglizcha ibora bo‘lib, “zavqli sayr” degani. Bu nom orqali skuter haydashi quvonchli, yengillik va maqsadsiz sayrdek yoqimli tajriba sifatida tasvirlanadi. “Sayohat bu – zavq” degan metafora asosida.

Vespa Liberty – “liberty” – ingliz tilida “erkinlik” degani. Bu nom insonlarga harakatdagi ozodlik, cheklovlarsiz hayot tarzini eslatadi. Skuter shaharda mustaqil harakatlanish vositasi sifatida, erkinlik metaforasi bilan bog‘langan.

Velomax – “velo” lotin tilidagi “velox” (tez, chaqqon) so‘zidan kelib chiqqan. Ko‘p tillarda “velo” so‘zi velosipedga oid barcha narsalarga ishora qiladi. “Max” – “maksimal” yoki “eng yuqori” degani. Ingliz tilidagi “maximum” so‘zining qisqartmasi. Velomax – “eng yuqori tezlikdagi harakat vositasi” degan ma‘noni anglatadi. Bu nom tezlik, kuch, harakatchanlik va sport ruhini bildiruvchi obraz yaratadi. O‘zbekiston, Rossiya, Qozog‘iston bozorlarida keng tarqalgan. Modellari: W7 Velomax, 60V/20Ah.

Yamaha BWs (Big Wheel Scooter) – “Bws” nomi marketingda “bleast” (yovvoyi hayvon) obraziga ishora qilingan. Qattiq tuzilishi, noteks yo‘llar uchun mo‘ljallangan. Hayvoniy kuch, yovvoyi tabiat obrazi orqali modelning mustahkamligi hamda yo‘ltanlamas xususiyati ifodalanadi.

Metaforik poreyonimlar skuterining texnik xususiyatlaridan tashqari tezlik, erkinlik, kuch va zamonaviylik kabi ramziy ma‘nolarni ifodalaydi.

Zoonim (hayvon nomlari) asosida shakllangan skuter poreyonimlari.

Ko‘plab skuterlarni nomlashda hayvonning xususiyatlariga (tezlik, kuch, epchillik va boshqa) ishora qiladi – bu metaforik va brend ko‘rinishini kuchaytiradi.

Italjet Dragster – Dragster o‘zi poyga vositasi, ammo modelda ko‘pincha ajdarho (dragon) dizayni yoki shiori ishlatiladi. Dragster dizaynida ajdarhoga o‘xshatish mavjud, kuchli va agressiv metafora yaratadi. Bu “fantastik hayvon” asosidagi nomlashga yaqin.

Kymco Super 8 R “Panther Edition” – panther – qora leopard. Maxsus dizayn seriyasida ishlatilgan. Panther – kuch, jim harakati va hujumkorlik timsoli sifatida. Sportiv, kuchli va agressiv harakatga urg‘u beradi.

Peugeot Kisbee – Kisbee nomining aniq hayvon bilan bog‘liqligi yo‘q, ammo model reklama materialida tez-tez chaqqon qushlar (masalan, swift) bilan taqqoslanadi. Qush obrazidagi metafora – yengillik va epchillikni anglatadi.

SYM Wolf – wolf-bo‘ri. Mustaqillik, kuch va yo‘ldan cheklanmaslik ramzi sifatida. Bo‘ri - yolg‘iz yuruvchi, kuchli va o‘z yo‘lini tanlaydigan hayvon.

Vespa – italyanchada “ari” degan ma‘noni anglatadi. Skuterining old dizayni va motor tovushi ari shiviriga oxshagani uchun shunday nomlangan. Ari – chaqqon, kichik, lekin faol. Shahar ichda tez va epchil harakatni ifodalaydi.

Ornitomim (qush nomlari) asosida shakllangan skuter poreyonimlari.

Drongo – bu brend O‘zbekistonda keng tarqalgan. Afrika va Osiyo hududlarida uchraydigan qush turining nomi (dicruridae – lot. ekzotik qush). “Drongo” poreyonimi skuter uchun tezlik, chaqqonlik, moslashuvchanlik va shahar sharoitida erkin harakat tushunchasini uyg‘otadi. Qush obrazining qo‘llanishi bu transportni yengil va epchil deb tasavvur qilishga yordam beradi [<https://www.iucnredlist.org/species>].

Zoonim va ornitoniimlar asosidagi poreyonimlar hayvon va qushlarning tabiiy xususiyatlarini skuter obraziga ko‘chirib, uning epchilligi, tezligi va harakatchanligini ifodalaydi.

6. Numeronim (raqamlar) asosida nomlangan skuter nomlari. Bu raqamlar odatda dvigatel hajmi, model kuchi yoki seriyasini bildiradi.

Aprilia SR 160 – 160 dvigatel hajmini bildiradi. O‘rta oralig‘da bo‘lgan sportiv model.

Honda Dio 110 – 110 cc dvigatel hajmini bildiradi. Kichik hajmli shahar ichida yengil harakatga mo‘ljallangan skuter.

Hero Destini 125 – 125 cc hajmli shahar uchun avtomatik skuter. Oila uchun qulay, ishonchli model.

Kymco Like 150i – dvigatel hajmi 150 cc, “i” - yonilg‘i tizimi. Retro dizayndagi zamonaviy, kuchli shahar skuteri.

Piaggio Liberty 125/150 - 125, 150 cc hajmdagi dvigatel. Erkinlik (liberty) go‘yasini kuch bilan uyg‘unlashtirgan.

Suzuki Access 125 – 125 cc hajmli dvigatel. Kundalik foydalanish uchun oddiy va qulay skuter.

SYM Jet 14 125/200 – 125, 200 cc hajmdagi dvigatel. Sportive ko‘rinishli, o‘rta kuchdagi skuter.

TVS Ntorq 125 - dvigatel hajmi 125 kub santimetr. Yoshlar uchun mo‘ljallangan sportiv ko‘rinishli skuter.

Vespa Primavera 150 – klassik Vespa modeli, 150 cc hajmga ega. Retro uslubida, ammo kuchli va zamonaviy skuter.

Yamaha Ray ZR 125 - dvigatel hajmi 125. Yengil, ammo kuchli shahar skuteri.

Numeronimlar skuter modelining texnik ko‘rsatkichlarini ifodalash bilan birga, ularni o‘zaro farqlashning muhim nominativ vositasi hisoblanadi.

7. Skuter topoporeyonimlar – toponim (joy nomlari) bilan atalgan skuter poreyonimlari.

Kymco Like 50 NYC Edition – “NYC” – New York City, AQSHning eng mashhur shahri. “NYC Edition” – tezkorlik, energiya, zamonaviylik va shahar hayotini ifodalaydi. Bu nom orqali shahar ichida harakatlanish uchun qulay model yaratilganini anglatadi.

Lambretta V-Special Rome Edition – “Rome” – Italiya poytaxti, qadimiy tarix va madaniyat markazi. Bu nom skuterga jiddiylik, tarixiylik va italyan merosiga sadoqat ruhini beradi.

SYM Firenze (Florence) – “Firenze” – italyan tilida Florence, madaniyat va san‘at markazi. Bu nom nafislik va estetik qadriyatlarni anglatadi. Skuter modeli nafis dizayn va yumshoqlik bilan ajralib turadi.

Peugeot Django Paris – “Paris” – Fransiyaning poytaxti, san‘at va uslub markazi. “Django” modelining “Paris” versiyasi retro va romantic uslubni anglatadi.

Vespa Milano – “Milano” Italiyaning shimolidagi mashhur moda markazi. Bu nom orqali Vespa brendi o‘zining italyancha nafisligi, zamonaviylik dizayni va shahar hayoti uslubini ta’kidlaydi. “Milano” brend uchun uslub va murakkablik ramzi sifatida ishlatiladi.

Vespa Primavera – “Primavera” italyan tilida “bahor” degan ma’noni anglatadi, lekin Italiyaning ayrim joy nomlarida ham uchraydi.

Yamaha Neo’s (Paris, Tokyo versiyasi) – “Paris”, “Tokyo” – jahonning mashhur shaharlari. Bu nomlar skuterning zamonaviylik, shahar hayotiga mos, texnologik va tez harakatlanuvchi transport vositasi ekanligini bildiradi. Paris – romantik va klassik, Tokyo – futuristik va texnologik.

Oronimlar (tog‘ nomlari) bilan nomlangan skuter nomi. Bunday nomlar odatda kuch, barqarorlik, balandlik yoki tabiiy mustaqillik kabi tushunchalarni ifodalaydi.

Yamaha Zuma 125 – “Zuma” Kaliforniyadagi Zuma tog‘i va plyaji nomidan olingan. (Zuma Beach). Bu model o‘zining sarguzashtbop ko‘rinishi bilan ko‘proq tog‘li va yo‘lsiz joylarda harakat qilishga moslashtirilgan. Bu nom modelning sarguzashtga yo‘naltirilgan xarakterini va tabiiy landshaftlarga mosligini ifodalaydi.

Skuter poreyonimlari asosan akronim, eponim, metafora, toponim, zoonim, ornitonim, numeronim va kommersial nomlash usullari asosida shakllanadi. Ularning nominatsiyasida texnik xususiyat, marketing strategiyasi hamda ramziy ma’no muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Superanskaya A. V. Obshchaya teoriya imeni sobstvennogo. Moskva: Nauka, 973.

2. Podolskaya N. V. Slovar russkoy onomasticheskoy terminologii. Moskva: Nauka, 1988.

3. Ernazarov T., Begmatov E. O‘zbek onomastikasi asoslari. Toshkent: Fan, 2012.

4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli. 4-jild. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023